

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Boshqaruv raisining elektr tarmoqlaridan foydalanish bo‘yicha birinchi o‘rnbosarining jamiyat tizimi xodimlari, soha mutaxassislari hamda aholiga murojaati

Davlatimiz rahbari o‘z chiqishlarida “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta‘minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur”, deya ko‘p bor ta‘kidlab o‘tadi. Shu ma’noda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruksiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korruksiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruksiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik muqarrarligini ta‘minlash yo‘lida davlat va jamoatchilik birlashmog‘i, hamjihatlikda harakat qilmog‘i lozim. Umuman olganda, korruksiyaviy yo‘nalishdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish umummilliy vazifa bo‘lmog‘i lozim, deb hisoblayman.

O‘zbekiston Respublikasining “Korruksiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni esa bu borada vazifasini o‘taydi.

Bugungi kunda “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan barcha tarkibiy korxonalarda “Korruksiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat xizmati” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu, o‘z navbatida, korruksiyaga qarshi ichkaridan turib kurashish, salbiy oqibatlarga olib keluvchi korruksion holatlarning oldini olishga xizmat qilishini ta‘kidlab o‘tish joiz.

Faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘tgan qisqa davr mobaynida Jamiyat va uning tarkibiy filiallarida korruksiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 16 dan ortiq ichki idoraviy hujjat ishlab chiqilib, bugungi kunda amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Misol o‘rnida, 2021 yil 10 noyabrdan mavjud barcha bo‘sh (vakant) lavozimlarga malakali mutaxassislarni ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish amaliyoti joriy etilgani, Jamiyatning rasmiy www.het.uz saytida tizimdagagi korruksion holatlarning mavjudligi, ularning ko‘rinishlariga baho berish hamda aholi fikrini o‘rganish maqsadida doimiy ishlovchi anonim so‘rovnama o‘tkazish sahifasi joylashtirilganini keltirib o‘tish mumkin.

Shu bilan birga, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda 2021 yilda ISO 37001:2016 “Korruksiyaga qarshi boshqaruv tizimi” va ISO 9001:2015 “Sifat menejmenti tizimi” standartlari joriy qilinib, 26 nafar rahbar va ishchi-xodim ISO 37001:2016 standarti bo‘yicha maxsus sertifikatlarga ega bo‘lgani jamiyatimizda korruksiyaga qarshi kurashishda tizimli say-harakatlar olib borilayotganidan dalolat bermoqda.

Bundan tashqari, Jamiyatda va tizim korxonalaridagi elektr uskunalarining metrologik ta‘minoti, mukammal va joriy ta‘mirlash davridagi o‘lchov-sinash ishlari to‘liq hajimda bajarilishini ta‘minlash, ekologiya, elektr uskunalarining o‘ta kuchlanishga, kuz-qish, toshqin-sel mavsumlariga tayyorlanganligi darajasi nazorat qilish va tizimdagagi tor va xavfli joylarni aniqlash, bartaraf etish ishlarini boshqarish. Taqsimlovchi elektr tarmoqlari obyektlarida elektr energiyasi va yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta‘minlash. Taqsimlovchi elektr tarmoqlari tizimining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini hamda iste‘molchilarga elektr energiyasini barqaror ravishda yetkazib berilishini va ehtiyojlarini qanoatlantirilishini ta‘minlash. Elektr uskunalarini ishonchli va samarali ishlatish, taqsimlovchi elektr tarmoqlarini ekspluatatsiya tadbirlarini olib borilishiga rahbarlik qilish, tizimda yagona texnik siyosatni yuritishini nazorat qilish. Tizim korxonalarda ekspluatatsiya darajasini oshirish, avariyyaga qarshi chora-tadbirlarni

belgilangan muddatlarda bajarilishini va amaldagi meyoriy hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlash. Tizim korxonalarida elektr tarmoqlari podstansiyalar va elektr uskunalarining mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini rejalari to'g'ri va to'liq ishlab chiqilishi, bajarilishi, materiallarga va uskunalariga belgilangan muddatlarda talabnomalar berilishi va ishlarni o'z vaqtida amalga oshirilishini talab qilish. Taqsimlovchi elektr tarmoqlarini rivojlantirish konsepsiyasini va qisqa muddatli va uzoq muddatli istiqbollarini hamda maqsadli milliy dasturlarini ishlab chiqishda bo'linmalar ishini muvofiqlashtirish kabi yo'naliishlarni korrupsiyadan xoli qilish bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

Fursatdan foydalanib, Jamiyatning barcha xodimlarini hamda kelajagimizga befarq bo'lмаган fuqarolarimizni qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi va har qanday noqonuniy hatti-xarakatlarga nisbatan javobgarlikning muqarrarligi tamoyillariga tayangan holda, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirilishi jarayonlarida faol ishtirok etishga chaqirib qolaman.

Eslatib o'tmoqchiman, tizimdagi qonunbuzarlik va korrupsiya holatlariga duch kelsangiz, Jamiyatning 1154 raqamli "Ishonch telefoni" yoki "Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat xizmati"ning (78) 150-75-61 telefon raqami orqali murojaat qilishingiz mumkin. Har bir murojaat qonunda o'rnatilgan tartibda shaxsiy nazoratim ostida ko'rib chiqiladi.

**Agzamjon Izbosarov,
"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Boshqaruв raisining birinchi o'rinosari.**